

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

MAVLONOV O‘TKIR XAMIDOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O‘SMIRLARDA PUBERTAT
KECHIKISHI SKRININGI VA BEPUSHTLIKNING BASHORATI**

14.00.03 – Endokrinologiya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mavlonov O‘tkir Xamidovich

O‘zbekiston Respublikasida o‘smirlarda pubertat
kechikishi skriningi va bepushtlikning bashorati..... 3

Мавлонов Уткир Хамидович

Скрининг задержки пубертата и прогнозирование
бесплодия у подростков по Республике Узбекистан..... 21

Mavlonov Utkir Khamidovich

Screening of delayed puberty and prediction of infertility
in adolescents in the Republic of Uzbekistan 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

MAVLONOV O‘TKIR XAMIDOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O‘SMIRLARDA PUBERTAT
KECHIKISHI SKRININGI VA BEPUSHTLIKNING BASHORATI**

14.00.03 – Endokrinologiya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Tib 2070 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent pediatriya tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ttpi.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urmanova Yulduz Maxkamovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolikova Adliya Omonullaevna
tibbiyot fanlari doktori

Najmutdinova Dilorom Kamaritdinovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 170127, Andijon shahri, Y. Atabekov ko‘chasi, 1-uy. Andijon davlat tibbiyot instituti asosiy binosi, 2-qavat. Тел.: (+99874) 223-94-50; факс: (+99874) 223-94-51; e-mail: info@adti.uz.)

Dissertatsiya bilan Andijon Davlat Tibbiyot Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100174, Andijon shahri, Y. Otabekov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99874) 223-94-50; faks: (+99874) 223-94-51

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Yusupova SH.K.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Nazarova G.U.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Shamansurova Z.M.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari
doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bolalar endokrinologiyasi masalalari orasida o'smirlarda o'sish va pubertatning muammosi hanuzgacha dunyodagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda va davolanish ko'pincha samarali natija bermaydi. Bu, bir tomondan, kasallikning etiologik omillarining ko'p qirraliligi, ikkinchi tomondan, iqlimning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatning ijtimoiy rivojlanish darajasi va tibbiy xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq bir qator munozarali jihatlarning mavjudligi bilan bog'liq. Ular orasida yod tanqisligi holatlari, yaqin qarindoshlar va erta nikohlarning mavjudligi, pubertat, o'sish va hatto yetuklik hayotida fertillikning kechikishi bilan bog'liq salbiy xavf omillari mintaqamiz uchun eng dolzarb bo'lib qolmoqda. Jinsiy rivojlanish muddatlarining o'zgarishi, ehtimol gigiyena va ovqatlanishning yaxshilanishi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning barqarorligining oshishi natijasidir. Ko'pincha o'sish va pubertat kechikishining sabablari aniqlangandan so'ng, aksariyat o'smirlarda o'sish va pubertatning konstitutsional kechikishi (O'PKK) taxmin qilinadi, ikkala jinsda ham normal o'sish va rivojlanishning nasliy shakli, oilaning o'sishi bilan bog'liq bo'lmagan holat hisoblanadi. Konstitutsional bo'lmagan kechikish surunkali kasalliklar, to'yib ovqatlanmaslik, doimiy psixologik muammolarning saqlanishi yoki gormonal anomaliyalar kabi turli asosiy buzilishlarda ikkilamchi tarzda rivojlanadi. Biroq, ayrim o'smirlarda yod tanqisligi holatlari fonida O'PK kuzatiladi. O'PK sabablari orasida idiopatik gipogonadotrop gipogonadizm (IGG), reproduktiv endokrin o'qning gipotalamo- va/yoki gipofizar darajasidagi patologik nuqson ham kuzatilishi mumkin, bu esa kattalar yoshiga qadar to'liq reproduktiv endokrin funksiyaga erisha olmaslikka olib keladi. Shu bois, kasallikni to'g'ri davolash va asoratlarni bashoratlash uchun ko'pincha molekulyar-genetik tashxis talab qilinadi.

Jahonda o'smirlarda pubertat kechikishi skriningi va bepushtlikning bashorati bo'yicha qator maqsadli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada o'smirlarda o'sish va pubertat kechikishi chastotasi, turli xil pre-, ante- va postnatal xavf omillarining ta'siriga ko'ra o'sish va pubertat xususiyatlarini o'rganish, idiopatik gipogonadotrop gipogonadizm bilan og'rigan bemorlarda GNRH1 genining rs 6185 polimorfizmining klinik-gormonal tadqiqot holatini va ahamiyatini baholash hamda o'smirlarda fertillikni bashoratlash maqsadida o'sish va pubertat kechikishi rivojlanishida eng muhim xavf omillari ta'sirini integral baholashga qaratilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiyot sohasini jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, somatik kasalliklarni erta tashxislash, davolash va oldini olishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yetti ustivor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya

xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»¹ kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasida o'smirlarda pubertat kechikishi skriningi va bepustlikning bashoratiga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5199-son "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹, 2022 yil 26 yanvardagi PQ-102-son "Endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"² qarori hamda mazkur faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy ishlarning tahlili shundan dalolat beradiki, butun dunyo bo'ylab o'smirlarda gipergonadotrop gipogonadizm turi bo'yicha oson aniqlanadigan birlamchi gonadalar yetishmovchiligining aniq sababini aniqlash mumkin, bu reproduktiv endokrin o'qning gipotalamik va gipofizar darajalarida jinsiy gormonlar tomonidan manfiy teskari aloqa cheklovining yo'qolishi natijasida yuzaga keladi (D.N.Shedrov, I.S.Shormanov, E.V.Shedrova, V.V.Tuz, D.Y.Garova, 2017). Rossiyada gipergonadotrop gipogonadizmning uchrashi 0,1% ni tashkil qiladi va bu holati bir qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga sabab bo'ladi (Dedov I.I., Peterkova V.A. 2006). Shu bilan birga, hisobga olingan konstitutsional o'sish va pubertat kechikishi 60-80% o'smirlarda jinsiy yetilishning orqada qolishiga sabab bo'ladi ((Howard S.R., et al., 2018; Sedlmeyer I.L. et al., 2002; Lomniczi A. et al., 2013; Potorac I. et al., 2016)). JSST statistikasiga ko'ra, o'g'il bolalarda reproduktiv va seksual salomatlik holatidagi buzilishlar aynan funktsional gipogonadotrop gipogonadizm fonida 40% ga oshgan, qiz bolalarda esa X-xromosomaga bog'liq anomaliya 1:2000 dan 1:5000 gachani tashkil qiladi (Smirnov V.V., Makazan N.V. 2012). Gipogonadotrop gipogonadizm (GG) - reproduktiv endokrin funktsiyani susaytirishi mumkin bo'lgan giperprolaktinemiya, gipotireoz va ortiqcha kortizol kabi endokrin kasalliklardan kelib chiqadi hamda gipotalamus va/yoki gipofiz funktsiyasi umumiy buzilishining bir qismi sifatida qaraladi (Hoffman B., Bradshaw K.D. 2003). JSST (2010) ma'lumotlariga ko'ra, o'smirlarda pubertat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5199-son "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PF-102-sonli "Endokrinologiya xizmati faoliyat doirasini takomillashtirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

kechikishi va bepushtlikning tarqalishi AQSH da 14%, Rossiyada -5,7%, Ispaniyada – 5,6%, Braziliyada – 5%, Xitoyda – 7,4%, Turkiyada – 14,8% ni tashkil etib, arab davlatlarida esa 2% dan yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan.

O‘zbekistonda o‘sinh va pubertat kechikishini (O‘PK) erta tashxislash va zamonaviy davolash usullari, profilaktikasi, turli endokrinopatiyalar bilan og‘rigan o‘smirlarda o‘sinh va rivojlanish, pubertat buzilishlarining o‘ziga xos jihatlari borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda (G.N. Rahimova, S.I. Ismailov 2000, N.Sh. Ibragimova 2021, Sh.Sh. Azimova 2023, K.N. Gilyazetdinov 2024). Biroq, O‘zbekiston Respublikasida o‘smirlarda pubertat kechikishi skriningi va bepushtlikning bashorati hali ham takomillashtirilmagan.

Shunday qilib, ko‘plab ilmiy ishlar o‘smirlarda pubertat va o‘sinh, aqliy rivojlanishi kechikishining klinikasini aniqlash, davolash va profilaktikasini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan, ammo ularning ko‘pchiligida o‘smirlar orasida skrining o‘tkazish va fertillikni bashoratlash hisobga olinmagan, hamda O‘PK genetik jihatlari hanuzgacha munozarali bo‘lib qolmoqda. Binobarin, O‘zbekistonda o‘smirlar va ularning ota-onalarining kasallikka munosabati, o‘sinh va pubertat kechikishi xavf omillari va asoratlari to‘g‘risida xabardorlik darajasini tavsiflovchi ma‘lumotlar mavjud emas. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasida o‘smirlarda o‘sinh va rivojlanish, pubertat buzilishlarini erta tashxislash usullarini ishlab chiqish, o‘smirlar va ota-onalarda sog‘lom rivojlanish ko‘nikmalarini shakllantirish va fertillikni bashoratlash bo‘yicha skrining tavsiyalarini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi, bu o‘smirlarni sog‘lomashtirish bo‘yicha turli dasturlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib hisoblanishi kerak.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent pediatriya tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ-2020042184 sonli “Bepushtlikni oldini olish uchun o‘smirlarda pubertat kechikishining erta tashxisini ishlab chiqish” (2020-2022 yy) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘smirlarda pubertat rivojlanishining buzilishi patogenezida GNRH1 rs6185 geni polimorfizmining ahamiyati hamda xavf omillarini integral baholash bilan o‘sinh va pubertat kechikishi skriningini o‘tkazishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston Respublikasining 7 ta hududida (Buxoro, Namangan, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri, QQR) pubertat yoshidagi o‘g‘il-qizlarni skrining tekshiruvidan o‘tkazish hamda ushbu hududlarda o‘smirlarda o‘sinh va pubertat kechikishi chastotasini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasining 7 ta hududidagi o‘sinh va pubertat kechikishi mavjud o‘smirlarda turli xil pre-, ante- va postnatal xavf omillarining ta‘siriga ko‘ra o‘sinh va pubertat xususiyatlarini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasining 7 ta hududida idiopatik gipogonadotrop gipogonadizm mavjud bemorlarda klinik-gormonal va genetik buzilishlar holatini baholash;

o'smirlarda fertillikni bashoratlash maqsadida o'sish va pubertat kechikishi rivojlanishida eng muhim xavf omillari ta'sirini integral baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasining 7 ta hududi (Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro viloyatlari, QQR) jami 2716 nafar o'smir o'g'il-qizlar olingan bo'lib, tadqiqotning 1-bosqichiga (2012-2013 yy) - 1066 nafar o'smir (Buxoro, Namangan, Toshkent viloyati va Toshkent sh.), 2-bosqichida (2021-2023 yy) - 1653 nafar o'smir (Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va QQR) jalb qilingan. Tadqiqotlar akademik Y.X.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiallarida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida biokimyoviy, gormonal va genetik tadqiqotlar o'tkazish uchun tanlab olingan o'smirlarning qon zardobi ko'rsatkichlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda klinik-biokimyoviy, gormonal va genetik, instrumental va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkala jinsga mansub o'smirlarda jinsiy a'zolarining tug'ma nuqsonlari, neyroendokrin omillar LG, FSG, ET, STG ma'lumotlarining klinik, demografik, gormonal va genetik qiyosiy tahlillari asosida gipogonadotrop gipogonadizm va ikkala jinsdagi o'smirlarning pubertat kechikishiga bog'liq balog'atga yetishishi va o'sishining kechikishi orasida o'zaro multiparametrik o'ziga xos bog'liqliklar aniqlangan;

prenatal, perinatal, postnatal va neyroendokrin xavf omillari, bo'y va tana vazni ko'rsatkichlari, gipogonadotrop gipogonadizmni ikkala jinsdagi o'smirlarda pubertat kechikishiga bog'liq balog'atga yetishishi va o'sishining kechikishiga ta'siri isbotlangan;

GNRH1 genining genetik variantlari (rs1812594 va rs6185) va idopatik gipogonadotropik gipogonadizm rivojlanishi o'rtasidagi patogenetik bog'liqlikning o'smirlarda(ikkala jins) balog'atga yetishishi va o'sishining kechikishiga ta'siri isbotlangan;

o'smirlarda(ikkala jins) balog'atga yetishishi va o'sishining kechikishini erta aniqlash prognostik algoritmi ishlab chiqilgan va uning bashoratlash mezonlari bo'yicha pubertat kechikishi mavjud o'smirlarda bepushtlik darajasini pasaytirish bo'yicha davolash va profilaktik chora-tadbirlarining klinik amaliyotga joriy qilinishining samaradorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'smirlarda pubertat kechikishining erta oldini olish usullarini optimallashtirishga yordam beradigan o'sish va pubertat kechikishi holati va chastotasini baholash bo'yicha natijalar olingan;

O'zbekiston Respublikasining 7 ta hududida o'sish va pubertat kechikishi bilan o'g'il va qiz bolalarda pubertat kechikishining yaqin va uzoq muddatli bashoratlari aniqlangan;

O'zbekiston Respublikasining 7 ta hududida genetik sindromlarning chastotalari, gipotalamo-gipofizar tizimining (GGT) organik shikastlanishi va pubertat va o'sish kechikishining klinik shakli konstatsiyasi baholangan bo'lib, bu xavf guruhlarini ajratish va ushbu omillarni o'z vaqtida modifikatsiya qilish, GGT patologiyasini erta tashxislash va davolashga yordam beradi;

pubertat va o'sish kechikishining turli klinik shakllarini differentsiatsiya qilish va korreksiya qilishni, o'smirlarning hayot sifatini yaxshilash va ularni ijtimoiy imkoniyatlar bilan tanishtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, tekshirilgan bemorlar sonining yetarliligi, tadqiqotda qo'llanilgan usullarning zamonaviy o'zaro bir-birini to'ldiruvchi klinik, biokimyoviy, gormonal va statistik tekshiruv usullar yordamida ishlov berilganligi, O'zbekiston Respublikasida o'smirlarda pubertat kechikishi skriningi va bepushtlikning bashoratidagi o'ziga xoslik xalqaro va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, xulosa olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pubertat kechikishi bilan og'rigan o'smirlarda GNRH1 rs1812594 va rs6185 geni polimorfizmining ahamiyati, bu esa nIGG ning genetik sababi ekanligi aniqlanganligi, xavf omillarini integral tahlili o'tkazilganligi hamda kelajakda bepushtlik rivojlanishining quyi, o'rta va yuqori xavf diapazonlari hisoblab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bolalar va o'smirlarda o'sish va pubertat kechikishini erta aniqlash va davolash algoritmlarining ishlab chiqilganligi, shuningdek, klinik-laborator tekshiruv ma'lumotlarini baholash orqali rag'batlantiruvchi pubertat terapiyani tavsiya qilish imkonini beruvchi fertillikni bashoratlash shkalasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilk bora o'smirlarda GNHR1 rs6185 gen polimorfizmining patogeneza rolini o'rgangan holda xavf omillarini har tomonlama baholash bilan balog'atga yetishish buzilishlarining o'sish va jinsiy rivojlanishning kechikishiga ta'sirini skrining qilish tadqiqoti natijasida:

birinchi ilmiy yangilik: ikkala jinsga mansub o'smirlarda jinsiy a'zolarining tug'ma nuqsonlari, neyroendokrin omillar LG, FSG, ET, STG ma'lumotlarining klinik, demografik, gormonal va genetik qiyosiy tahlillari asosida gipogonadotrop gipogonadizm va ikkala jinsdagi o'smirlarning pubertat kechikishiga bog'liq balog'atga yetishishi va o'sishning kechikishi orasida o'zaro multiparametrik o'ziga xos bog'liqliklar aniqlanganligi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 03/199-son, 2024 yil 6 martda ishlab chiqilgan "O'smirlarda o'sish va balog'atga yetishning kechikishining oldini olish" nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: mazkur taklif Buxoro viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 42-son buyrug'i) va Navoiy viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 38-son buyrug'i) amaliy faoliyatiga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* O'sishning kechikishi va balog'atga yetishning o'zgartirilishi mumkin bo'lgan xavf omillarini

(qarindoshlar va erta nikohlar, yod tanqisligi, gipotiroidizm, oqsil-vitamin yetishmovchiligi, stress va boshqalar) o'z vaqtida oldini olish o'smirlarda o'sishning kechikishi va balog'atga yetish xavfini kamaytiradi va shu bilan keyingi salbiy asoratlarni rivojlanish xavfini kamaytiradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* O'zgartirilishi mumkin bo'lgan xavf omillarining o'z vaqtida oldini olish va bartaraf etish xarajatlarni tejashga yordam beradi. O'sishning kechikishi va balog'atga yetishishni davolash narxi genetik jihatdan ishlab chiqilgan o'sish gormoni, inson xorionik gonadotropini, jinsiy gormonlar va kasallikni davolash uchun zarur bo'lgan boshqa dori-darmonlarning narxi bilan belgilanadi, bu sezilarli yillik xarajatlarni anglatadi. Birgina o'sish gormonining o'rtacha narxi har bir o'smir uchun oyiga 5-6 million so'mni tashkil etadi va ular uni 1-2 yil davomida uzluksiz qabul qilishlari natijasida yiliga o'rtacha 70 million so'm sarflanadi, tejamkorlik 70 million so'mgacha yetdi. Xulosa: o'sishning kechikishi va balog'atga yetishishning o'zgartirilishi mumkin bo'lgan xavf omillarini o'z vaqtida oldini olish, o'z navbatida, kasallikning dastlabki bosqichida yanada jiddiy asoratlar rivojlanishining oldini olishga yordam beradi va har bir bemorni tekshirishda 70 million so'mgacha mablag' tejaydi;

ikkinchi ilmiy yangilik: prenatal, perinatal, postnatal va neyroendokrin xavf omillari, bo'y va tana vazni ko'rsatkichlari, va gipogonadotrop gipogonadizmni ikkala jinsdagi o'smirlarda pubertat kechikishiga bog'liq balog'atga yetishishi va o'sishning kechikishiga ta'siri isbotlanganligi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 03/199-son, 2024 yil 6 martda ishlab chiqilgan "O'smirlarda o'sish va balog'atga yetishning kechikishining oldini olish" nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: mazkur taklif Buxoro viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 42-son buyrug'i) va Navoiy viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 38-son buyrug'i) amaliy faoliyatiga joriy etildi. *Ijtimoiy samaradorligi:* Kelajakda o'smirlik davrida tug'ilishni bashorat qilish shkalasi yordamida o'sishning kechikishi va balog'atga yetishishning ishonchli diagnostikasi reproduktiv kasalliklarning oldini olishga va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* o'sishi va jinsiy rivojlanishi kechikkan bemorni 10 kun davomida kasalxonada statsionar davolanishi narxi 4 million so'mdan 8 million so'mgacha, o'rtacha 7 million so'mni tashkil etadi, bir yil davomida o'sishi va jinsiy rivojlanishi kechikib qolgan bir bemorni konservativ ambulator davolash 6 million so'mga tushadi, bu esa 13 million so'mgacha tejamkorlikni bildiradi. Xulosa: ishlab chiqilgan tug'ilishning buzilishini bashorat qilish shkalasidan o'z vaqtida foydalanish o'sishning kechikishi va balog'atga yetishning kechikishi xavfini kamaytirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida kasallikning keyingi salbiy asoratlari rivojlanishining oldini olishga yordam beradi;

uchinchi ilmiy yangilik: aniqlangan GNRH1 genining genetik variantlari (rs1812594 va rs6185) va idopatik gipogonadotropik gipogonadizm rivojlanishi o'rtasidagi patogenetik bog'liqlikning o'smirlarda (ikkala jins) balog'atga yetishishi va o'sishning kechikishiga ta'siri isbotlanganligi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 03/199-son, 2024 yil 6 martda ishlab chiqilgan "O'smirlarda o'sish va

balogʻatga yetishning kechikishining oldini olish” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: mazkur taklif Buxoro viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 42-son buyrugʻi) va Navoiy viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 38-son buyrugʻi) amaliy faoliyatiga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Olingan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilishi davolash-profilaktika muassasalarida profilaktika yordami sifatini oshiruvchi yangi usulni joriy etish imkonini bergan. *Iqtisodiy samaradorligi:* Oʻsmirlarda(ikkala jins) balogʻatga yetishishi va oʻsishining kechikishini erta aniqlash, oʻz vaqtida tashxis qoʻyish va davolash ambulatoriya sharoitida har bir bemorga 13 million soʻmdan 70 million soʻmgacha tejash imkonini bergan. *Xulosa:* Kelajakda tugʻilish bilan bogʻliq muammolarni bashorat qilish uchun shkalalar bilan toʻldirilgan diagnostika va davolash algoritmlarini joriy qilish har bir bemorning ehtiyojlariga moslashtirilgan individual davolash rejalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

toʻrtinchi ilmiy yangilik: oʻsmirlarda(ikkala jins) balogʻatga yetishishi va oʻsishining kechikishini erta aniqlash prognostik algoritmi ishlab chiqilgan va uning bashoratlash mezonlari boʻyicha pubertat kechikishi mavjud oʻsmirlarda bepustlik darajasini pasaytirish boʻyicha davolash va profilaktik chora-tadbirlarining klinik amaliyotga joriy qilinishining samaradorligi isbotlanganligi “Oʻsmirlarda oʻsish va balogʻatga yetishning kechikishining oldini olish” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: mazkur taklif Buxoro viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 42-son buyrugʻi) va Navoiy viloyat endokrinologiya dispanserining (19.02.2024 yildagi 38-son buyrugʻi) amaliy faoliyatiga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Xavf omillari va tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda oʻsishning kechikishi va balogʻatga yetishning kechikishi boʻyicha skrining oʻtkazish har bir alohida holatda oʻsmirlarda pubertat kechikishning rivojlanishining haqiqiy sabablarini aniqlashga yordam beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* oʻsish va jinsiy rivojlanishdagi kechikishlarni bartaraf etish boʻyicha aholi oʻrtasida profilaktika ishlarini olib borish tugʻma nuqsonlar holatlarini kamaytiradi va tugʻma gipotiroidizm, Klaynfelter sindromi, Tyorner sindromi va boshqa kasalliklarni davolash va parvarishlash uchun davlat mablagʻlarini tejash imkonini beradi. *Xulosa:* Xavf guruhidagi oʻsmirlarda (ikkala jins) balogʻatga yetishishi va oʻsishining kechikishini erta aniqlash prognostik algoritmi qoʻllash va uning bashoratlash mezonlari boʻyicha pubertat kechikishi mavjud oʻsmirlarda bepustlik darajasini pasaytirish boʻyicha davolash va profilaktik chora-tadbirlarining klinik amaliyotga joriy qilinishi oʻsish va balogʻatga yetishi kechikib qolgan oʻsmirlarni roʻyxatga olish, skrining va monitoringini olib borish, bepustlik va unga bogʻliq sotsial va klinik asoratlarni oldini olish orqali aholi hayot sifatini oshirishga va aholi salomatligi koʻrsatkichlarini oshirishga taʼsir qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta jurnal maqola, jumladan 2 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, shuningdek ilmiy ish mavzusida 1 ilmiy-uslubiy tavsiyanoma, 1 ta BGU patent va 2 maxalliy va 7 ta xalqaro tezis va maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 94 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish ro'yhati, ishning aprobatsiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'sish va pubertat kechikishining etiopatogenezi, tasnifi, xavf omillari, klinikasi va tashxisi bo'yicha adabiyotlarning tahliliy sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy adabiyotlar asosida o'sish va pubertat kechikishining etiopatogenezi, epidemiyologiyasi, tasnifi, xavf omillarining o'ziga xos jihatlari asosida qilingan izlanishlar va olib borilgan antropometrik, immunobiokimyoviy, genetik o'zgarishlar muammosining hozirgi holati bo'yicha adabiyotlar sharhi berilgan. O'smirlarda O'PK fertillikning buzilishini bashoratlash, tashxislash va davolashda mualliflik yondashuvi tanlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning materiali va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning material va usullari bayon etilgan bo'lib, o'sish va pubertat kechikishida kuzatilgan o'zgarishlarning klinik-anamnestik, biokimyoviy, gormonal, instrumental, genetik va boshqa tekshiruv ma'lumotlari tavsiflangan.

O'zbekiston Respublikasining 7 ta hududida aholini o'rganish (skrining) 4 bosqichda amalga oshirildi:

I bosqichda tadqiqotning ikkala davrida jami 2719 nafar o'smirlarda xalqaro Tanner-Uaytxaus bo'y va vazn jadvali asosida antropometrik (maqsadli bo'y, centil, o'sish sur'ati, bo'y va vazn SDS va x.k), genitometrik (Tanner bo'yicha jinsiy rivojlanish bosqichini baholash), kerak bo'lsa, rentgenologik (kaft rentgenogrammasi, turk egari KT/MRT), jinsiy a'zolar UTT, kariotipni aniqlash va boshqa tekshiruvlar o'tkazilgan.

II bosqichda 3 ta hududdan turli rivojlanish buzilishlari bilan 696 nafar bemor (65,3%) va 5 ta hududdan 602 nafar bemor (36,4%) tanlab olindi, ular orasida PK - 191 nafar (17,9%) va 201 nafar (12,1%) o'smirda, o'zaro muvofiqlikda aniqlandi.

III bosqichda 3 ta hududdan 143 nafar va 5 ta hududdan 170 nafar bemorlarda endokrin holati, umumiy klinik, biokimyoviy, gormonal (STG, LG, FSG, prolaktin, TTG, erkin testosteron, kortizol, erkin tiroksin) tekshiruvlar o'tkazilgan.

IV bosqichda 90 nafar bemorda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Odam immunologiyasi va genomikasi institutida O'zRes SSV Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy markazi bilan 2021-yil 16-dekabrda 10-son hamkorlik shartnomasi asosida "Immunogen test" diagnostika markazida genetik tadqiqoti (GNRH1 (rs6185, rs1812594 geni polimorfizmi va b.) o'tkazilgan.

Istisno tariqasida 16 yoshdan oshgan o'smirlar, kattalar, nur terapiyasi va bosh miya jarrohligi o'tkazilgan o'smirlar tadqiqotga jalb qilinmagan.

Tadqiqotning 1-bosqichida (2012-2013 yy) respublikaning 3 ta hududida: Toshkent v./Toshkent sh. – 343 nafar, Buxoro v./Buxoro sh. – 523 nafar va Namangan v. – 200 nafar, jami 1066 nafar o'smir, II bosqichida (2021-2022 yy) O'z.Res. 5 ta hududidan - 1653 nafar: Jizzax v. - 330 nafar (157 - qiz, 173 - o'g'il), Namangan v. – 455 nafar (195/260l), Surxondaryo v. - 327 nafar (158/169), Qashqadaryo v. – 284 nafar (132/152l), QQR dan – 257 nafar (142/115) o'smirlar skrining qilindi (1-jadval).

Dissertatsiyaning "Namangan viloyati, Buxoro viloyati va Buxoro shahri, Toshkent viloyati va Toshkent shahrining o'smir o'g'il bolalari o'rtasida o'sish va pubertat kechikishining skrining natijalari (2012-2013 yillar)" deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotning 1-bosqichida (2012 yil 10 maydan 2013 yil 18 oktabrgacha) yuqorida keltirilgan hududlarda istiqomat qiluvchi o'smir o'g'il bolalarda O'PK skrining tekshiruvi natijalari keltirilgan.

1-jadval

Tadqiqotning 1 va 2-bosqichida respublikaning 7 ta hududida o'smirlarning yoshga ko'ra taqsimlanishi (Tanner shkalasi bo'yicha)

Tanner bo'yicha pubertat bosqichlari	1-bosqich			2-bosqich				
	1	2	3	4	5	6	7	8
I prepubertat	92/-	49/-	44/-	49/-	21/-	21/-	21/-	21/-
II 11,7±1,3 yosh	62/3	126/17	52/4	26/9	92/9	82/11	35/13	22/5
III 13,2±0,8 yosh	40/19	83/39	27/11	83/5	90/11	70/14	45/11	50/7
IV 14,7±1,1 yosh	46/13	80/18	25/18	80/11	112/13	76/9	43/15	51/5
V 15,5±0,7 yosh	103/14	185/32	204	92/8	140/10	78/13	113/17	140/5

Izoh: 1 - Toshkent vil, 2 - Buxoro vil, 3 - Namangan vil, 4 - Jizzax vil, 5 - 2-bosqichda Namangan vil, 6 - Surxondaryo vil, 7 - QQR, 8 - Qashqadaryo vil., suratda – umumiy son, maxrajda – O'PK soni

1-jadvalda ko'rsatilgan natijalarga ko'ra, 3 ta hududda prepubertat bosqichi – 185 nafar, II bosqichi – 240 nafar, III bosqichi – 150 nafar, IV bosqichi- 151 hamda V bosqichi – 340 nafar o'smirlarda qayd etilgan. 5 ta hududda esa prepubertat bosqichi – 34 nafar, II bosqichi – 201 nafar, III bosqichi – 433 nafar, IV bosqichi - 282 nafar hamda V bosqichi – 703 nafar o'smirlarda aniqlangan. Shuningdek, 5 ta hudud kesimida prepubertat bosqichi – 133 nafar, II bosqichi – 201 nafar, III bosqichi – 433 nafar, IV bosqichi- 282 nafar hamda V bosqichi – 703

nafar o'smirlarda qayd etilgan. Ushbu hududlarda O'PK ko'proq Namangan va Jizzax viloyatlarida qayd etilgan.

2-jadval

Tadqiqotning 1 va 2-bosqichida respublikaning 7 ta hududida o'smirlarning o'rtacha antropometrik ko'rsatkichlari

	Hududlar kesimida	Koʻrsatkichlar				
		boʻy, sm	boʻy SDS	vazn, kg	TVI, kg/m2	boʻy oʻsish tezligi, sm/yil
1-bosqich						
	Toshkent	135,5±3,3	-0,8	25,6±1,8	17,0±0,7	5,6 ± 0,8
	Buxoro	138,3±2,6	-0,7	26,3±1,7	17,1±0,5	5,3 ± 0,2
	Namangan	135,5±3,6	-0,9	27,4±1,9	18,4±0,7	6,3 ± 0,0
2-bosqich						
	Jizzax	138,9±9,5	-1.6	35,6±7,8	17,5±2,3	5,7 ± 1,3
	Namangan	141,7±8,6	1.2	36,3±5,7	17,3±2.5	7,5 ± 1,2
	Surxondaryo	137,4±7,9	-1.7	38,8±6,5	17,9±3,5	5,9 ± 0,8
	Qashqadaryo	139,5±3,6	-1.4	37,4±4,9	17,4±1,3	6,3 ±0,0
	QQR	140,7±8,	1.3	39,4±5,7	17,4±0,5	7,8 ± 1,2
	Nazorat	151,6±3,4	+1,2	31,1±1,2	18,4±0,7	12,3 ± 0,12

Tadqiqotning ikkala bosqichida o'smirlarning o'rtacha antropometrik ko'rsatkichlarini o'rganish pubertat shkalasi 5 bosqichi bo'yicha persentil jadvallari asosida hisoblab chiqildi va barcha guruhlarda o'rtacha ko'rsatkichlar meyordagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada, 1-bosqichda - o'sish SDS o'zaro muvofiqlikda - 0,8, 0,7, 0,9 oralig'ida, 2-bosqichda -1,6, -1,7, -1,4 oralig'ida bo'lganligi qayd etilgan (2-jadval).

Shuningdek, tadqiqotning 1 va 2 bosqichida 7 ta hududda O'PK kuzatilgan o'smirlarda jinsiy a'zolar tug'ma rivojlanish nuqsonlarining tarqalishi o'rganilgan. Ma'lumotlar analiziga ko'ra, 7 ta hudud kesimida o'smirlarda jinsiy a'zolarining tug'ma nuqsonlaridan: 1-bosqichda kriptorxizm – 24 holatda (2,3%), varikotsele – 22 (2,0%), moyaklar gipoplaziyasi – 15 (1,4%), chov churrasi – 10 (0,9%), anorxiya – 7 (0,7%), meatostenoz – 3 (0,3%), gidrotsele 1-2 darajasi – 2 (0,2%), “quyon lab” – 1 holatda (0,09%) va b. qayd etilgan. 2-bosqichda 174 nafar bemorlarda kriptorxizm 1 va 2 tomonlama – 35 holatda (20,1%), varikotsele – 60 (34,5%), soxta kriptorxizm – 25 (14,4%), chov churrasi 1va 2 tomonlama – 11 (6,3%), anorxiya – 9 (5,2%), ginekomastiya – 15 (8,6%), kindik churrasi – 3 (1,7%), mikropenis – 18 (10,3%) holatda qayd etilgan.

Tadqiqotning 1 va 2 bosqichida 7 ta hududda O'PK kuzatilgan o'smirlarning gormonal ko'rsatkichlari tahlil qilingan va natijalari 3-jadvalda ko'rsatilgan. 3-jadvalda tadqiqotning 1-bosqichida I va II-guruhdagi bemorlarda LG, FSG bazal qiymatlari, erkin tiroksin (ET) miqdori o'rtacha giperprolaktinemiya fonida sezilarli darajada pastligi ($p<0,05$), III-guruhda esa PRL ko'rsatkichlarining yuqoriligi, ETestos ning pasayishi fonida FSG va LG ning kamayganligi aniqlangan. IV-guruhda LG, FSG bazal darajasining ishonchli pasayishi ($p<0,05$) fonida STG, ETestos o'rtacha qiymatlarining biroz pasayganligi ($p>0,05$), PRL darajasining ortganligi ($p<0,05$) qayd etilgan. V-guruhdagi bemorlarda esa LG,

FSG va ETestos sezilarli pasayganligi ($p<0,05$), STG, PRL va boshqa gormonlarning meyoriy qiymatlarda saqlanganligi aniqlangan.

3-jadval

Tadqiqotning 1 va 2 bosqichida O'zbekiston respublikaning 7 ta hududida o'smirlarning gormonal ko'rsatkichlari

Gormon	STG ng/ml	LG ME/L	FSG ME/L	TTG ME/L	PRL ng/ml	E testos. nmol/l	Kortizol nmol/l	ET pmol/l
1-bosqich (Jami: n = 143)								
Nazorat	3,9±0,2	5,2±0,3	5,3±0,1	2,5±0,1	5,7±0,3	12,6±1,6	296,5±11,7	15,8±8,1
1 gp. n=29	2,3±0,4*	1,2±0,3*	1,4±0,5*	1,8±0,7*	7,4±0,8	4,9±0,2*	289,3±9,3	12,4±1,4
2 gp. n=31	2,8±0,2*	1,1±0,3*	1,9±0,1*	4,9±0,4	7,1±0,6	4,4±0,9**	300,2±8,2	9,5±1,3*
3gp. n=32	2,1±0,5*	1,3±0,4*	1,6±0,6*	2,4±0,7	8,6±0,4*	9,6±0,3*	356,1±9,4*	13,4±1,1
4 gp. n=30	1,8±0,4*	1,5±0,1*	1,3±0,2*	1,9±0,3*	8,3±0,1*	9,5±0,7*	382,7±9,4*	16,3±1,4
5 gp. n=21	2,8±0,5*	1,2±0,3*	3,1±0,4*	1,1±0,3*	5,6±0,5	9,7±0,1*	297,1±8,5	19,6±2,5
2-bosqich (jami n = 170)								
Nazorat	3,8±0,2	5,2±0,3	5,3±0,1	2,5±0,2	5,7±0,3	12,6±1,6	296,5±11	15,8±0,9
1 gr. n=10/10	2,1±0,6*	1,1±0,2*	2,2±0,2*	1,3±0,8*	8,8±0,4*	1,9±0,7**	286,9±12	14,4±2,8
2 gr. n=15/20	2,2±0,8*	1,2±0,9*	2,1±0,3*	4,8±0,9	9,5±0,6*	1,4±0,5**	223,2±12*	8,2±1,3*
3 gr. n=20/19	2,2±0,7*	1,0±0,1*	1,8±0,3*	2,6±0,5	8,7±0,8*	1,6 ±0,9**	257,2±11,4 *	15,7±3,1
4 gr. n=21/23	1,9±0,8*	1,2±0,4*	1,1±0,9*	1,9±0,8	8,5±0,6*	2,5±0,6**	277,7±9,4*	16,9±3,8
5 gr. n=12/20	2,3±0,2*	2,2±0,3*	2,0±0,7*	1,8±0,7	5,8±0,5	2,7±0,1**	258,1±8,5*	17,2±3,9

Izox: STG – somatotroph gormon, LG lyuteinlashtiruvchi gormon, FSG , follikulani stimulyatsiya qiluvchi gormon, TTG - tireotrop gormon, E test – erkin tesosteron, ET- erkin tiroksin'; * -bu P ishonchlilik mezon, qachonki * - bu $p < 0.005$, ** - bu $p < 0.0001$

Bundan tashqari, LG, FSG va ETestos darajalariga qarab, og'ir GG - LG/FSG - 0,1-0,9 ME//L gacha, ETestos – 1-3 nmol/l gacha; o'rta og'ir GG - LG/FSG - 1-4 ME//L gacha, ETestos – 3-7 nmol/l gacha va engil GG - LG/FSG - 4 ME/L va undan yuqori, ETestos – 7 nmol/l va undan yuqori deb belgilangan (3-jadval, a).

Shunday qilib, gormonal natijalarni tahlilida, eng ko'p - o'rtacha og'ir GG (72,6%), eng kam - og'ir (16,04%) va engil (11,3%) darajalari qayd etilgan. Faqat 1 nafar (0,9%) bemorda gipergonadotropik gipogonadizm aniqlangan.

Shuningdek, tadqiqotning 2-bosqichida ham barcha guruhdagi bemorlarda LG, FSG bazal qiymatlari meyorga nisbatan sezilarli pasayganligini, ETestos - o'rtacha giperprolaktinemiya fonida sezilarli darajada pastligini ($p<0,05$), II-

guruhda meyoriy ET fonida TTG ortishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'g'il bolalarda LG, FSG va ETestos darajalariga ko'ra, og'ir GG - LG/FSG - 0,1-0,9 ME/L gacha, ETestos – 1-3 nmol/l gacha, o'rta og'ir GG - LG/FSG 1-4 ME/L gacha, ETestos – 3-7 nmol/l gacha, hamda yengil GG - LG/FSG - 4 ME/L va undan yuqori, ETestos - 7 nmol/l va undan yuqori bo'lishi qayd etilgan. Qiz bolalarda estradiol/progesteron ko'rsatkichlariga qarab, og'ir ikkilamchi GG da - 0,22 dan 0,55 nmol/l gacha, o'rtacha og'irlikda - 0,56 dan 1,0 nmol/l gacha va engil darajada - 1,1 dan 2,0 nmol/l gacha bo'lishi aniqlangan. Bu buzilishlar gipogonadotrop (ikkilamchi) gipogonadizm mavjudligini bildiradi.

Bunda ham LG, FSG, ET o'rtacha qiymatlariga qarab, GG 3 guruhga – yengil (77 nafar (45,3%)), o'rtacha (37 nafar (21,7%)) va og'ir (56 nafar (33%)) darajaga ajratilgan (3-jadval).

Dissertatsiyaning **“QQR va O'zbekiston Respublikasining Namangan, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridagi o'smirlarda o'sish va pubertat kechikishining shaxsiy skrining natijalarini tahlil qilish (2021-2022 yy.)”** deb nomlangan to'rtinchi bobida tadqiqotning 2-bosqichida - 2021 yil 1 yanvardan 2022 yil 31 dekabrigacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining 5 ta hududida jami 1653 nafar (869 – o'g'il va 784 – qiz) o'smirlarning O'PK skrining natijalarining tahlili keltirilgan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqotning 1-bosqichida 3 ta hududdagi 1066 nafar o'g'il bolalarning 191 nafarida (17,9%) jinsiy rivojlanish kechikishi va turli xil buzilishlari aniqlangan bo'lib, 126 holatda - O'PK (11,8%), O'K - 134 nafar (12,5%) o'smirda, kam vaznlilik (KV) eng yuqori sur'atlarda – 231 nafar bemorda (Toshkent, Buxoro va Namangan viloyatlarida o'zaro muvofiqlikda – 64 (27,7%), 88 (38,1%), 79 (34,2%) holatlarda qayd etilgan. Shu bilan birga, PK va JARK ko'proq Buxoro viloyatida - 523 nafar (35,7%) bemorda, jami 1066 nafar bemorlardan 187 ta xolatda (17,5%) kuzatilgan (2-rasm).

Tadqiqotning 2-bosqichida 5 ta hududdagi o'smirlarda rivojlanishning buzilishlaridan: PK - 201 nafar (33,3%), 67 holatda - O'PK (11,2%), O'K - 91 nafar (15,1%) o'smirda aniqlangan. Shuningdek, umumiy PK va O'PK - 268 nafar bemorda (16,2%), kam vaznlilik – 126 holatda (20,9%) qayd etilgan. Shu bilan birga, O'PK ko'proq Jizzax, Qashqadaryo viloyati va QQR da - 30 nafar (4,9%).

